



MIGIRANTLARNI DEPORTATSIYA QILISH VA EKSTRADISIYA QILISH: XALQARO HUQUQIY KAFOLATLAR TAHLILI



Ziyayeva Jasmina Abramot qizi

Toshkent Xalqaro universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Yurudik fanlari bo'yicha Falsafa doktori.

S.X.Avliyaqulov

Annotatsiya. Maqolada “migirantlarni deportatsiya va ekstraditsiya qilish” haqidagi xalqaro huquqiy kafolatlar tahlili, xalqaro hujjatlarda uning aks etishi va uning natijalariga doir mulohazalar bildirilgan hamda muayyan xulosalarga kelingan.

Tayanch so'zlar: ekstraditsiya, deportatsiya, xalqaro huquq, majburiy chiqarib yuborish, ma'muriy jazo, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, noqonuniy migratsiya.

Kirish.

Bugungi kunda xalqaro migratsiya jarayonlarining kuchayishi deportatsiya va ekstraditsiya institutlarining huquqiy ahamiyatini oshirmoqda. Davlatlar ushbu mexanizmlar orqali noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashadi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashga intiladi. Biroq bu jarayonlar inson huquqlari va asosiy erkinliklariga bevosita ta'sir ko'rsatgani sababli, xalqaro huquq doirasida qat'iy kafolatlar bilan tartibga solinadi.

Deportatsiya asosan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ma'muriy tartibda davlat hududidan chiqarib yuborishni anglatadi, ekstraditsiya esa jinoyat sodir etgan yoki sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni boshqa davlatga topshirish jarayonidir. Xalqaro huquqda ushbu institutlar bo'yicha non-refoulement prinsipi, qiynoqqa solinmaslik, o'lim jazosi qo'llaniladigan davlatlarga yubormaslik kabi asosiy kafolatlar mustahkamlangan.



Mazkur maqolada migrantlarni deportatsiya va ekstraditsiya qilishga oid xalqaro huquqiy kafolatlar, ularning xalqaro hujjatlar va sud amaliyotida aks etishi hamda ushbu choralarni qo'llashning huquqiy oqibatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Deportatsiya— jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburan chiqarib yuborish, haydash. Fransiya jinoyat huquqda Deportatsiya termini Fransiya jinoyat qonunchiligiga ko'ra, 18— 19-asrlarda (1721 - yilda Gvianaga) qo'llangan surgunning alohida ko'rinishlarini anglatgan. Deportatsiyadan retsdivist jinoyatchilar bilan birga jamiyat uchun xavfli deb topilgan shaxislarni jazolashda foydalanilgan. Ko'pincha u yo bu davlatga g'ayriqonuniy kelib qolgan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Deportatsiya qilinadi. 1920—40 yillardagi ommaviy qatag'onlar davrida sobiq Ittifoqning ko'p xalqlari Deportatsiyaga duchor bo'lgan. Deportatsiya atamasi fransuz jinoyat huquqida XVII—XVIII asrlarda surgunning maxsus turlarini bildirish uchun paydo bo'lgan. Birinchi marta siyosiy jihatdan ishonchsiz shaxslarni Gvianaga deportatsiya qilish Fransiya inqilobi davrida, 1793-yilda qabul qilingan “Shubhalilar to'g'risidagi qonun” (fransuzcha: Loi des suspects) bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konventsiyasining 4-sonli bayonnomasiga muvofiq, hech kim o'zi fuqarosi bo'lgan davlat hududidan chiqarib yuborilishi va hech bir fuqaroning o'z davlati hududiga kirishi taqiqlanishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. 1998 yil 17 iyuldagi Xalqaro Jinoyat Sudi Rim Statutining 7-moddasiga ko'ra, “aholini deportatsiya qilish yoki majburan ko'chirish” insoniyatga qarshi jinoyat hisoblanadi va xalqaro jinoiy javobgarlikka tortiladi. Rossiya Federatsiyasining jinoiy qonunchiligida tinch aholini deportatsiya qilish taqiqlangan urush usullari va vositalaridan foydalanish holatlaridan biri bo'lib, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 356-moddasiga ko'ra jinoyat hisoblanadi. Hozirgi vaqtda deportatsiya atamasi biror bir mamlakatdan ma'muriy chora sifatida chiqarib yuborish bilan sinonim bo'lib, faqat chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan va ularni qabul qiluvchi davlatdan tashqariga nazorat ostida ixtiyoriy ravishda tark etish



yoki majburan (shu jumladan, mirshablar hamrohligi, kuzatuv ostida) chiqarib yuborishdan iborat bo'lgan ma'muriy jazo turini bildiradi.[1]

Xalqaro migratsiya huquqining odat normalari gumanitar huquqqa taalluqli bo'lgan ba'zi normalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bular qatoriga, masalan, davlatlar tinch aholisining bir qismini o'zlari okkupatsiya qilgan (egallab olgan) hududga deportatsiya qilishi yoki ko'chirishi mumkin emasligi, agarda ko'chirilgan taqdirda ham, tegishli fuqaro, shaxslarning turar joy va xavfsizlik bilan bog'liq sharoitlari qoniqarli darajada ta'minlanishi uchun barcha qonuniy choralarni ko'rishi lozimligiga oid qoidalarni kiritish mumkin. Sud qarorlari orasida muhim o'rinni Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi qarorlari egallaydi. Yevropa sudi unga 1950-yilgi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining a'zo-davlatlar tomonidan buzilishi yuzasidan individual shikoyatlar asosida ish yuritishga qabul qilingan aniq ishlarni ko'rib chiqadi va hal qiladi. Yevropa sudining migratsiya munosabatlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan qarorlari borasida shuni ta'kidlash kerakki, bunday ishlar sudning amaliyotida kam sonni tashkil qiladi va asosan qochoq maqomi berilmagan shaxslarni deportatsiya qilish holatlariga taalluqlidir (masalan, "Xukic Shvetsiyaga qarshi", "Liu va Liu Rossiyaga qarshi", "Nasimi Shvetsiyaga qarshi" kabi ishlar). Deportatsiya bilan bog'liq bir qator ishlarni ko'rib chiqishda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi quyidagi xulosaga keladi: "Agar u yoki bu mamlakatdagi shart-sharoitlar jiddiy murojaat qilish xavfi va murojaatning qat'iyiligi 3-moddaga tegishli bo'lsa, shaxsni bunday shart-sharoitlarga deportatsiya qilish, topshirish yoki chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror... shunday qaror qabul qilgan ahdlashuvchi davlatning javobgarligini keltirib chiqaradi Bitimda ko'zda tutilgan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishning muhim chorasi bu sohada tomonlarning o'zaro hamkorligi hisoblanadi. O'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyida-gilardan iborat: migratsiya nazorati; chegarani noqonuniy kesib o'tuvchi shaxslarni, shuningdek, bitim ishtirokchi davlatlariga kirishi taqiqlangan shaxslarni hisobga olish; noqonuniy migrantlarni deportatsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish; noqonuniy migrantlar va ularning yordamchilari uchun javobgarlik sohasidagi milliy



qonunchilikni uyg'unlashtirish; noqonuniy migratsiyaga qar-shi kurashish masalalari bilan shug'ullanuvchi tegishli organlar xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish; axborot almashish va boshqalar. Deportatsiya - o'zining suveren huquqidan foydalangan holda davlatning chet ellikni uning mamlakatda bo'lish ruxsatnomasi rad etilgandan yoki amal qilish muddati tugagandan so'ng o'z hududidan muayyan joyga chiqarib yuborish harakati.[2]

Ekstraditsiya— bir davlatdan boshqa bir (xorijiy) davlatga o‘z fuqarosini (yoki chet el fuqarosini) ushlab berish. Xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni berishga, xalqaro shartnomalarda ko‘rsatilganidek, faqat tegishli davlatlar o‘rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan hollarda yoki “o‘zarolik prinsipiga” asosan yo‘l qo‘yiladi. Xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplariga asosan, fuqarolarga nisbatan o‘lim jazosi yoki qiynoqqa solish xavfi bo‘lgan davlatlarga ekstraditsiya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ekstraditsiya - odatda kelishuv yoki boshqa o'zaro bitimlar asosida, bir davlat tomonidan boshqa davlatga shaxsni rasman topshirish jarayoni. Bu shaxs birinchi davlat hududidan tashqarida sodir etilgan va ikkinchi davlat yurisdiksiyasiga kiruvchi jinoyat uchun ayblanayotgan yoki hukm qilingan bo'ladi. Bunday topshirish sud tekshiruvini o'tkazish va jazoni ijro etish maqsadida amalga oshiriladi.[3]

Ekstraditsiya - odatda kelishuv yoki boshqa o'zaro bitimlar asosida, bir davlat tomonidan boshqa davlatga shaxsni rasman topshirish jarayoni. Bu shaxs birinchi davlat hududidan tashqarida sodir etilgan va ikkinchi davlat yurisdiksiyasiga kiruvchi jinoyat uchun ayblanayotgan yoki hukm qilingan bo'ladi. Bunday topshirish sud tekshiruvini o'tkazish va jazoni ijro etish maqsadida amalga oshiriladi.[4] O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi (keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb ataluvchilar) jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro huquq normalariga tayangan holda, jinoyatchilikka barham berishda yanada samaraliroq hamkorlikni ta’minlash va shu maqsadda ekstraditsiya to‘g‘risida bitim tuzish istagida, quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar: Agar jinoyat so‘rayotgan tomonning hududidan tashqarida sodir etilgan bo‘lsa va so‘ralayotgan tomonning qonunchiligi uning hududidan tashqarida xuddi shunday holatlarda sodir etilgan



qilmish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutsa, ushlab berish amalga oshiriladi. Agar ushlab berish so‘ralishiga sabab bo‘layotgan jinoyat uchun so‘rayotgan Tomon qonunchiligida o‘lim jazosi belgilangan bo‘lib, so‘ralayotgan Tomon qonunchiligida bunday jazo nazarda tutilmagan bo‘lsa, so‘ralayotgan Tomon ushlab berishni rad qilishi mumkin, basharti so‘rayotgan Tomon o‘lim jazosi tayinlangan taqdirda, uning ijro etilmasligini kafolatlamasa ushlab berishni rad etadi. Agar qidirilayotgan shaxs ochiqdan-ochiq va o‘z ixtiyoriga ko‘ra so‘rayotgan Tomonga ushlab berilishiga rozilik bersa, so‘ralayotgan Tomon ushlab berishni tezlashtirish uchun o‘z milliy qonunchiligida ruxsat berilgan barcha choralarni ko‘rishi mumkin. Mazkur Bitim Tomonlar ishtirokchi bo‘lgan boshqa xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga daxl qilmaydi.[5] O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Bolgariya Respublikasi Hukumati o‘rtasida Bitim Noqonuniy bo‘lib turgan shaxslarni qayta qabul qilish to‘g‘risida bitim imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Bolgariya Respublikasi Hukumati, bundan keyin “Tomonlar” deb ataluvchilar, chegaralararo noqonuniy migratsiyaning oldini olishga hissa qo‘shish va ushbu migratsiyaga qarshi kurashish istagiga amal qilib, o‘zaro manfaatli asosda va hamkorlik ruhida bir Tomon davlat hududiga noqonuniy kirgan yoki ushbu Tomon davlat hududida noqonuniy bo‘lgan shaxslarni qayta qabul qilishni yengillashtirishga ko‘maklashish maqsadida, BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiya va Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to‘g‘risida 1950-yil 4-dekabrda Konvensiyani e‘tiborga olib, quyidagilar to‘g‘risida ahdlashib oldilar: Tomonlarning har biri boshqa Tomonning iltimosiga ko‘ra ariza yuborgan Tomon tarafidan deportatsiya qilinayotgan chet elliklar, ular nasabiy mamlakat yoki uchinchi mamlakat tomonidan qayta qabul qilish uchun, shuningdek kirishga rad qilingan chet elliklar uchun o‘z davlati hududidan tranzit o‘tishga ruxsat beradi. Ariza yuborilgan Tomon tranzit o‘tish vaqtida kuzatuvchi sifatida boshqa Tomonning vakolatli organi vakilining qatnashishini talab qilishi mumkin.



Arizani yuborgan Tomon yetib borishning oxirgi mo'ljali bo'lgan mamlakatga olib borish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar bilan ta'minlashga majburdir.

Arizani qabul qilgan Tomon o'z milliy qonunlariga muvofiq kuzatiladigan shaxsga, hamda uni kuzatuvchi shaxslarga bepul tranzit vizasini beradi.

Har qanday berilgan ruxsatga qaramasdan, arizani yuborgan Tomon chet ellikning yetib borishning oxirgi mo'ljali bo'lgan mamlakat hududiga tranzit o'tish uchun javobgar va uchinchi mamlakatga kirishga, shuningdek boshqa mamlakatlar hududlaridan tranzit o'tishga ruxsat berilmaganda yoki qandaydir munosabat bilan uning o'tishining davom etishini imkoni yo'q bo'lsa, uni qayta qabul qiladi. Ushbu Bitimga muvofiq arizani qabul qilgan Tomon chet ellikni deportatsiya qilishda yoki unga kirish rad qilinsa, tranzit o'tishda rad qilishi mumkin, agar u:

1) milliy xavfsizligiga, jamoat tartibiga yoki mamlakat aholi sog'lig'iga tahdid ko'rsatsa;

2) yetib borishning oxirgi mo'ljali bo'lgan mamlakatda yoki barcha keyingi tranzit mamlakatlarda irqi, e'tiqodi, milliy mansubligi, siyosiy masligi yoki jamoatning muayyan guruhiga aloqasi borligi sabablariga ko'ra ta'qib qilish tahdidiga uchrasa. Qayta qabul qilish majburiyatlaridan istisnolar: 1) arizani yuborgan Tomon davlati hududiga kirib olish vaqtida o'zida yoki keyinchalik ushbu Tomon tarafidan berilgan amaldagi kirish vizasini yoxud bo'lishi uchun ruxsat bo'lgan chet elliklarga.

Agar kirish vizasi yoki bo'lishi uchun ruxsat ikkala Tomon tarafidan berilgan bo'lsa, javobgarlikni uning vizasi yoxud bo'lishi uchun ruxsatning muddati oxirgi bo'lib tugagan Tomon o'z zimmasiga oladi.

2) noqonuniy kirish yoki bo'lish fakti aniqlangandan keyin olti oydan keyin qayta qabul qilish to'g'risidagi ariza berilgan hollarda. [6] Interpol — xalqaro politsiya hamkorligi tashkiloti bo'lib, u qochoqda yurgan jinoyatchilarni topish, aniqlash va ularga nisbatan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan shug'ullanadi. Interpol o'z a'zolari bo'lgan davlatlar orasida ma'lumot almashish va qochqinlarni topish uchun yordam beradi. Interpol tomonidan chiqarilgan Red Notice (Qizil



xabar) — bu xalqaro miqyosda qidiruv e'lonidir, u barcha a'zo davlatlarning huquqni muhofaza qilish idoralariga jinoyatchi yoki gumonlanuvchini joyini aniqlash va vaqtincha hibsga olish (keyin esa ekstraditsiya/topsirish uchun) so'rovi sifatida tarqatiladi. Red Notice bevosita xalqaro hibsga olish mandati emas, balki har bir a'zo davlatning o'z qonunchiligiga ko'ra jinoyatchini hibsga olishi yoki ekstraditsiya qilish bo'yicha qaror qabul qilinishiga turtki beradi. Member davlatlarga qochoqda yurgan jinoyatchilarni topish va lokatsiya qilish bo'yicha ko'maklashadi.

Red Notice orqali barcha a'zo davlatlarni jinoyatchi haqida ogohlantiradi. Bu xabar ekstraditsiya yoki sud oldiga topshirish uchun zarur bo'lishi mumkin. Interpol o'zi ekstraditsiya qilmaydi yoki deportatsiya qarorini qabul qilmaydi — faqat ma'lumot almashish va qidiruv uchun vositalarni taqdim qiladi. Qarorlar esa har bir davlat o'z qonunlariga asosan qabul qilinadi. Interpol Red Notice asosida mamlakat politsiyasi jinoyatchini aniqlashi va hibsga olishi mumkin, keyin esa ekstraditsiya jarayoni shu shaxsni talab qiluvchi davlatga yuborish bo'yicha milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalar orqali amalga oshiriladi. Masalan: Boshqa davlat Interpol orqali qidiruv e'lon qilingan shaxsni topib, so'ngra uni ekstraditsiya qildi.[7] Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ham ekstraditsiya va deportatsiya jarayonlarini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki xalqaro huquqiy standartlar orqali tartibga soladi, xususan shaxslarni boshqa davlatga yuborishda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi.

Ekstraditsiya qilinayotgan shaxsning inson huquqlari himoya qilinishi kafolatlanadi. Shaxsni qiynoqqa soladigan yoki o'lim jazosi qo'llanadigan davlatga yuborish mumkin emas (non-refoulement printsipi). Ekstraditsiya bo'yicha standartlar Model Treaty on Extradition Ekstraditsiya shartnomalarini tuzishda model standartlarni beradi. Shaxsni qiynoqqa yubormaslik kafolati Convention Against Torture (Article 3) Non-refoulement printsipi bilan shaxsni qiynoqqa yubormaslikni talab qiladi. Qochoqlarni deportatsiyadan himoya qilish 1951 Refugee Convention (Article 33) Qochoqlarni xavfli davlatga qaytarishni taqiqlaydi

Umumiy inson huquqlari kafolatlari ICCPR va boshqa BMT hujjatlari Adolatli sud, erkinlik, zarar ko'rmaslik shartlari. International Covenant on Civil and



Political Rights (ICCPR) ham inson huquqlarini kafolatlash orqali adolatli sud va qiynoqqa solinmaslik prinsiplarini ta'minlab beradi. Hech bir ishtirokchi davlat qochoqni deportatsiya qilish yoki boshqa yo'l bilan uning hayoti yoki erkinligi irqiga, diniga, fuqaroligiga, ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligiga yoki siyosiy qarashlariga ko'ra xavf ostida bo'lgan davlat hududiga qaytarishga haqli emas.

Davlat hududida qonuniy ravishda bo'lib turgan qochoq faqatgina: milliy xavfsizlik, yoki jamoat tartibi manfaatlari asosida chiqarib yuborilishi mumkin.

Deportatsiya:

faqat qonuniy tartibda qabul qilingan qaror asosida amalga oshiriladi;

qochoqqa o'zini oqlash, shikoyat qilish va vakil orqali himoyalanish huquqi berilishi shart.

Davlat qochoqqa: boshqa davlatga qonuniy tarzda ketishi uchun oqilona muddat berishi lozim. deportatsiyani mutlaq taqiqlamaydi, lekin uni qat'iy protsessual kafolatlar bilan cheklaydi. Qochoqni chiqarib yuborish faqat istisno holatlarda va qonuniy kafolatlar bilan mumkin. Deportatsiya inson huquqlariga zid bo'lmasligi, ayniqsa hayot va erkinlikka tahdid tug'dirmasligi kerak.[8]

Xulosa.

Migrantlarni deportatsiya qilish va ekstraditsiya qilish jarayonlari xalqaro huquqda aniq kafolatlar bilan cheklangan. Eng muhim kafolat — non-refoulement prinsipi bo'lib, u shaxsni hayoti, erkinligi, qiynoqqa solinishi yoki o'lim jazosi xavfi mavjud bo'lgan davlatga yuborishni taqiqlaydi (1951-yilgi Qochoqlar to'g'risidagi Konvensiya, Qiynoqlarga qarshi Konvensiya). Shuningdek, xalqaro huquq ommaviy deportatsiyani taqiqlaydi, har bir migrantning holati individual tartibda ko'rib chiqilishini, deportatsiya yoki ekstraditsiya faqat qonuniy qaror asosida amalga oshirilishini belgilaydi. Migrantga qarordan shikoyat qilish, huquqiy yordam olish va adolatli muomala huquqlari kafolatlanadi (ICCPR, Yevropa inson huquqlari konvensiyasi).

Ekstraditsiya jarayonida esa shaxsni qiynoqqa soluvchi yoki o'lim jazosi qo'llanadigan davlatga topshirish taqiqlanadi, shuningdek, adolatli sud kafolatlari ta'minlanishi shart. Shu sababli, xalqaro huquqiy kafolatlar deportatsiya va



ekstraditsiya jarayonlarida inson huquqlarini himoya qiluvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Deportatsiya [elektron manba] <https://share.google/wpzXdiYgifWa8uhrR>
2. Миграция ҳуқуқи. Исоқов Л. 2022 – TSUL – Library [[Elektron manba] <https://library-tsul.uz/migracziya-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bi-iso%D2%9Bov-1-2022/>
3. Ekstraditsiya [Elektron manba] <https://share.google/DEv1XgGnu71BQvHdI>
4. Миграция ҳуқуқи. Исоқов Л. 2022 – TSUL – Library [[Elektron manba] <https://library-tsul.uz/migracziya-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bi-iso%D2%9Bov-1-2022/>
5. O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi o‘rtasida Bitim EKSTRADISIYA bo‘yicha [Elektron manba] <https://lex.uz/docs/-4444585#-4444758>
6. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Bolgariya Respublikasi Hukumati o‘rtasida Bitim Deportatsiya bo‘yicha [Elektron manba] <https://lex.uz/docs/-1308245#-1308443>
7. Legal framework <https://www.interpol.int/en/Who-we-are/Legal-framework>
8. Convention Relating to the Status of Refugees (1951-yil Qochoqlar to‘g‘risidagi konvensiya) https://www.unodc.org/pdf/model_treaty_extradition.pdf